



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-oktabr

586-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi choratadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 24-sentabrdagi PQ-338-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 498-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi choratadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 24-sentabrdagi PQ-338-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktabrdagi 498-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktabrdagi 498-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasida chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan milliy dastur (keyingi o‘rinlarda - Milliy dastur) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

quyidagilar Milliy dasturning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi:

2025-2028-yillarda chang bo‘ronlarini prognoz va monitoring qilish tizimini takomillashtirish hamda aholini barvaqt ogohlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

chang va qum bo‘ronlari oldini olish va oqibatlarini yumshatishda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish hamda hududlarda yashil qoplamalarni kengaytirish;

qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etish;

2026-yilga qadar mavjud yaylovlarning 30 foizini, 2028-yilga qadar - 60 foizini hamda 2030-yilga qadar - to‘liq geobotanik holatini inventarizatsiyadan o‘tkazish, geobotanik jihatdan tekshirish va ularning geobotanik xaritalarini tuzish;

chang bo‘ronlariga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

2028-yilga qadar kuchli chang bo‘ronlari hosil bo‘lish sur‘atlarini hozirgi holatiga nisbatan 50 foizga qisqartirish;

chang bo‘ronlariga qarshi kurashishga qaratilgan ekologik ta‘limni kuchaytirish;

belgilanishicha, Milliy dasturni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan har ikki yilda bir marotaba 1-dekabrga qadar keyingi davrga mo‘ljallangan “yo‘l xaritalari” tasdiqlanishi;

Vazirlar Mahkamasi 2024-yil 1-dekabrga qadar Milliy dasturni 2025-2026-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlashi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda:

2025-yil 1-yanvardan boshlab Toshkent shahrining 12 ta tumanida fon monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashtirilgan kichik stansiyalarni o'rnatish ishlarini boshlashi;

2026-yil 1-yanvardan boshlab aholining keng qatlamlari va jamoatchilikni atmosfera havosining sifati bo'yicha ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida Toshkent shahri hududida o'rnatilgan maxsus monitor va tablolarida majburiy ravishda atmosfera havosining ifloslanish darajasi hamda gidrometeorologik ma'lumotlarni e'lon qilib borishi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligining chang bo'ronlariga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni mintaqaviy yondashuv asosida muvofiqlashtirish bo'yicha quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

Markaziy Osiyo davlatlari bilan muhokama qilgan holda Yashil Markaziy Osiyo fondi (keyingi o'rinlarda - Fond) va Markaziy Osiyo iqlim masalalari markazini (keyingi o'rinlarda - Markaz) tashkil etishning konseptual asoslarini ishlab chiqish;

Markaziy Osiyo davlatlari bilan Fond va Markazning vazifalari hamda ular faoliyatining moliyalashtirish manbalarini belgilash yuzasidan muzokaralarni boshlash;

muzokaralar natijasi bo'yicha Fondning konseptual asoslarini ishlab chiqib, unga har yili ajratiladigan mablag'lar manbalari va miqdori yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'tkazilgan muzokaralar yakuni bilan Fond va Markazni tashkil etish, doimiy ekspert maslahatlashuvlarini yo'lga qo'yish yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

2030-yildan boshlab Toshkent shahar va unga tutash Toshkent viloyatining hududlarida joylashgan isitish va elektr energiya ishlab chiqarish korxonalariga yoqilg'i sifatida mazutdan foydalanish taqiqlanishi, bunda 2025-yilning kuz-qish mavsumidan boshlab zaxira yoqilg'i sifatida mazutdan foydalanishga faqat Vazirlar Mahkamasining har yili kuz-qish mavsumi oldidan chiqariladigan qarori asosida obhavo va texnologik rejimlardan kelib chiqqan holda yo'l qo'yilishi;

Toshkent shahriga tutash tumanlarda joylashgan 1,2 mingdan ortiq issiqxonalarda foydalanilayotgan ko'mir yoqilg'isining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatilishi hamda bunday uskunalarini o'rnatish uchun issiqxona xo'jaliklariga subsidiya ajratish mexanizmi joriy qilinishi;

2025-2030-yillar davomida Toshkent shahar va unga tutash Toshkent viloyatining hududlaridagi jami 441 gektar yer maydonlarida "yashil belbog'" va "yashil bog'lar" tashkil qilinishi;

2028-yildan boshlab "Yevro - 4" standartidan past ekologik toifadagi motor yoqilg'isidan foydalanish va sotish bosqichma-bosqich cheklanishi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Bosh prokuratura, Toshkent shahar va Toshkent viloyati hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda 2025-2030-yillar davomida Toshkent shahar va unga tutash Toshkent viloyati hududlarida "yashil belbog'" va "yashil bog'lar" barpo etish bo'yicha dasturni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2025-yil 1-fevralga qadar ishlab chiqarish kuchlarini, iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish konsepsiyalari, sxemalarining loyihalari, 50 mingdan ortiq kishi istiqomat qilishi loyihalashtirilayotgan obyektlar uchun shaharsozlik hujjatlari va shaharlar bosh rejalarini ishlab chiqishda majburiy ravishda ushbu obyektlar havo sirkulyatsiyasi va havo oqimlarining fizik xossalari, joy relyefini inobatga olgan holda modellashtirishni amalga oshirish tartibini joriy qilishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Toshkent shahrida atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

Toshkent shahrining diqqatga sazovor ko'chalarida avtotransport vositalaridan xoli hududlarni tashkil etish;

“Shahar - piyodalar uchun” shiori asosida jamoat transportiga har tomonlama ustunlik berilishini ta’minlash;

Toshkent shahri hamda har bir tumanining ekologik “master-reja”sini ishlab chiqish;  
sanoat korxonalarida zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatish va eskilarini almashtirish ishlarini tashkil etish;

mikroiqlim mo‘tadilligini ta’minlash, atmosfera havosi sifatiga ijobiy ta’sir etish maqsadida sun’iy suv havzalarini barpo etish;

atmosfera havosi bilan bog‘liq xavflar va uning salbiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqish hamda zararli ta’sirni kamaytirishga qaratilgan ko‘rsatuvlar, ijtimoiy roliklar tayyorlash;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda belgilangan tartibda har yili yanvar oyining 15-sanasiga qadar mazkur qaror va Milliy dasturda belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishi yuzasidan axborotni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi e’tiborga olinsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**